



**“TASDIQLAYMAN”**

**Urganch innovatsion universiteti  
ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo‘yicha  
prorektori M.M. Masharipov**

**Urganch innovatsion universiteti ilmiy tadqiqotlar, innovatsiyalar va  
ilmiy-pedagogik kadrlarni tayyorlash bo‘limi tomonidan tyutorlar bilan  
o‘tkazilgan seminar trening mashg‘uloti to‘g‘risida**

## **BAYONNOMA**

**28.01.2025-yil**

**Urganch shahri**

Urganch innovatsion universiteti ma‘naviyat va ma‘rifat kengashi ish rejasi va 2025-yil 25-yanvar kunidagi kengash bayonida ko‘rsatilgan topshiriqqa muvofiq **tyutorlar faoliyati samaradorligini oshirish maqsadida** Urganch innovatsion universitetida 28-yanvar kuni **“Ma‘naviy-ma‘rifiy yo‘nalishdagi ishlarni tizimli yo‘lga qo‘yishda tyutorlarning o‘rni va roli”** mavzusida o‘quv seminari tashkil etildi. Ushbu seminar trening mashg‘ulotida yoshlar masalalari va ma‘naviy-ma‘rifiy ishlar bo‘yicha prorektor **N.Matyakubov**, rektor maslahatchisi **G‘.Matsapayev**, ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo‘yicha prorektor **M.Masharipov**, “Ijtimoiy-gumanitar fanlar va pedagogika” fakulteti dekani **B.Satimov**, ta‘lim sifatini nazorat qilish departamenti boshlig‘i **D.Yusupov**, yoshlar bilan ishlash, ma‘naviyat va ma‘rifat bo‘lim boshlig‘i **X.Davletov**, universitet profilaktika inspektori **M.Berdiyev**, psixolog **D.Jumabayeva** hamda ilmiy tadqiqotlar, innovatsiyalar va pedagogik kadrlarni tayyorlash bo‘lim boshlig‘i **A.Abdullayevlar** turli mavzulardagi ma‘ruzalari bilan ishtirok qildilar.

Jumladan, ilmiy tadqiqotlar, innovatsiyalar va pedagogik kadrlarni tayyorlash bo‘lim boshlig‘i **A.Abdullayev** iqtidorli talabalarni izlash, aniqlash, rag‘batlantirish va maqsadli tayyorlash, shuningdek, ilmiy ishlarni tizimli ravishda olib borish maqsadida **“Talabalarning ilmiy faoliyatiga ko‘maklashish yo‘llari”** mavzusida seminar trening mashg‘ulotini olib bordi. Mashg‘ulotda tyutorlarga talabalarning ilmiy qiziqishlarini uyg‘otish, ilmiy faoliyatini samarali tashkil etish, ilmiy tadqiqot bosqichlarini o‘rgatish, iqtidorli talabalarni qo‘llab-quvvatlash va rag‘batlantirish bo‘yicha tushunchalar berildi.

**Ilmiy tadqiqotlar, innovatsiyalar va  
ilmiy pedagogik kadrlarni tayyorlash  
bo'limi boshlig'i:**



**A.Abdullayev**

**Ilmiy tadqiqotlar, innovatsiyalar va  
ilmiy pedagogik kadrlarni tayyorlash  
bo'limi mutaxassisi:**



**Sh.Yusupova**

## Seminardan lavhalar



